BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK REFLEKSIYANI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Rahimberdiyeva Maftuna Raximberdi qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Pedagogika fakulteti,

Pedagogika kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

Email: maftunadilshodahon@gmail.com

Phone: +998948052226

Abstract

This paper examines key challenges in developing pedagogical reflection among pre-service EFL teachers and proposes a structured methodological model to address them. The study employs qualitative methods, including observation, diagnostic surveys, and content analysis of reflective writings. The findings indicate that reflection is often mistakenly treated as an intuitive personal trait rather than a teachable professional competence. As a solution, a four-stage reflective development model is proposed, integrating microteaching, video analysis, reflective journals, and mentor feedback. The results demonstrate a shift from descriptive to analytical and critical reflection, enhancing professional decision-making skills. The study highlights the importance of structured reflection, clear assessment criteria, and supportive learning environments in teacher education.

Keywords

pedagogical reflection, pre-service teachers, reflective practice, metacognition, teacher education, professional competence**.**

Annotatsiya

Mazkur maqola bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida pedagogik refleksiyani shakllantirishdagi dolzarb muammolarni tahlil qiladi va ularni bartaraf etishga yo‘naltirilgan didaktik hamda tashkiliy yechimlarni asoslaydi. Tadqiqotda tahliliy-sintez, kuzatuv, diagnostik so‘rov va reflektiv yozuvlarni kontent tahlil qilish usullari qo‘llanadi. Ilmiy yangilik refleksiyani kompetensiyaviy yondashuv bilan integratsiyalashgan ko‘p bosqichli model orqali rivojlantirish mexanizmlarini aniqlashdir.

Kalit so‘zlar

pedagogik refleksiya, bo’lajak ingliz tili o‘qituvchisi, kasbiy kompetensiya, metakognitsiya, reflektiv kundalik, mikroo‘qitish, amaliyot.

Аннотация. Настоящие тезисы анализируют актуальные проблемы формирования педагогической рефлексии у будущих учителей английского языка и обосновывают дидактические и организационные решения, направленные на их преодоление. В

исследовании применяются методы анализа и синтеза, наблюдения, диагностического опроса, а также контент-анализа рефлексивных письменных работ. Научная новизна заключается в определении механизмов развития рефлексии посредством многоэтапной модели, интегрированной с компетентностным подходом.

Ключевые слова: педагогическая рефлексия, будущие преподаватели английского языка, профессиональная компетенция, метакогниция, рефлексивный дневник, микрообучение, практика.

Kirish

Pedagogik refleksiya — bu bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy ongida nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydigan, ta’limiy vaziyatlarni tushuntirish va qayta loyihalashga xizmat qiladigan metakognitiv jarayondir [1],[2]. Ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda refleksiya alohida ahamiyat kasb etadi[3], chunki chet tilini o‘qitish jarayoni doimiy kommunikativ moslashuv, o‘quvchi ehtiyojini aniqlash, interaktiv metodlarni tanlash va baholash mezonlarini shaffoflashtirishni talab qiladi[7].

Shunga qaramay, amaliyot ko‘rsatadiki, refleksiya ko‘pincha o‘qituvchining shaxsiy fazilati sifatida talqin qilinib [5], tizimli o‘rgatiladigan va baholanadigan kompetensiya darajasiga ko‘tarilmay qolmoqda. Natijada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisida darsni tahlil qilish, xatoni pedagogik resursga aylantirish, o‘z uslubini dalillarga tayangan holda yangilash kabi kasbiy harakatlar yetarli darajada shakllanmayd[6].

Muammoning ildizida bir necha omillar mujassam. Birinchidan, refleksiyaning nazariy mohiyati va operatsion ko‘rsatkichlari o‘quv rejalari hamda fan dasturlarida yetarlicha aniq ko‘rsatilmaydi[3]. Refleksiya “o‘z-o‘zini tahlil qilish” degan umumiy ibora bilan cheklanib, aynan nimani, qaysi mezonlar asosida va qanday dalillar bilan tahlil qilish kerakligi ochilmaydi [4]. Ikkinchidan, baholash madaniyati ko‘proq yakuniy natijaga yo‘naltirilgani sababli jarayoniy tahlil, reflektiv dalillash va o‘zgarish dinamikasi e’tibordan chetda qoladi. Uchinchi omil sifatida amaliyot bazalarida mentorlik tizimining bir maromda ishlamasligi, kuzatuv va teskari aloqaning tasodifiyligi, refleksiya uchun vaqt va formatning ajratilmagani ko‘zga tashlanadi[8]. To‘rtinchidan, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida metakognitiv strategiyalar, ya’ni o‘z o‘qitish qarorlarini rejalashtirish, monitoring qilish va qayta ko‘rib chiqish ko‘nikmalari maxsus mashqlar orqali rivojlantirilmaydi, bu esa refleksiyani “hisobot” darajasida qoldiradi [6], [1].

Tadqiqotning maqsadi – bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida pedagogik refleksiyani rivojlantirishga qaratilgan metodik modelni ishlab chiqish va uning samaradorligini empiric asosda aniqlashdir. Tadqiqot natijalari pedagogik amaliyot va ta’lim dasturlarini takomillashtirishga, shuningdek, o‘qituvchilarda reflektiv va metakognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi

Pedagogik refleksiya tushunchasi dastlab John Dewey tomonidan asoslab berilgan bo‘lib, u refleksiyani muammoli vaziyatni ongli tahlil qilish jarayoni sifatida ta’riflaydi [1]. Keyinchalik Donald Schön refleksiyani amaliy faoliyat jarayonida va undan keyingi tahlil sifatida ikki turga ajratadi [2].

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda refleksiya o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi sifatida qaraladi [3]. Thomas Farrell reflektiv amaliyotni o‘qituvchining o‘z faoliyatini chuqur anglash vositasi sifatida baholaydi.

Shuningdek, refleksiya darajalari tavsifiy, tahliliy va tanqidiy bosqichlarga ajratilgan bo‘lib, bu tasnif refleksiyani baholashda muhim metodologik asos hisoblanadi.[6]

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida pedagogik refleksiyani rivojlantirish muammolari va yechimlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, sifatli (qualitative) tadqiqot yondashuvi asosida olib borildi. Tadqiqot ishtirokchilari sifatida pedagogika universitetining ingliz tili ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan 4-kurs 30 nafar talaba jalb qilindi. Tadqiqot jarayonida ishtirokchilar pedagogik amaliyot davrida faoliyat olib bordilar [3].

Ma’lumotlar 6 hafta davomida bir nechta usullar asosida to‘plandi va bu yondashuv ma’lumotlar ishonchliligini (triangulyatsiya) ta’minlashga xizmat qildi. Jumladan:1)dars jarayonini tizimli kuzatish (pedagogik faoliyat va reflektiv xatti-harakatlarni aniqlashga yo‘naltirilgan);2)refleksiya mohiyati va tarkibiy qismlarini aniqlashga qaratilgan diagnostik so‘rovnoma;3)har bir darsdan so‘ng talabalar tomonidan yozilgan reflektiv kundaliklar.

Yig‘ilgan ma’lumotlar kontent-tahlil (content analysis) usuli orqali tahlil qilindi[4]. Reflektiv yozuvlar uch daraja asosida baholandi: tavsifiy (descriptive), tahliliy (analytical) va tanqidiy (critical) refleksiya. Ushbu darajalar asosida maxsus kodlash tizimi ishlab chiqilib, unda talabalarning dars jarayonini tasvirlash, sabab-oqibatni izohlash va dalillarga asoslangan takomillashtirish takliflarini ilgari surish qobiliyati tahlil qilindi[6]. Natijalarning ishonchliligini ta’minlash maqsadida turli manbalardan olingan ma’lumotlar (kuzatuv, so‘rovnoma va reflektiv yozuvlar) o‘zaro solishtirildi. Shuningdek, refleksiya jarayonini chuqurlashtirish va natijalarni tekshirish uchun mentorlik asosidagi teskari aloqa (feedback) tashkil etildi[9].

Tadqiqot davomida etik me’yorlarga qat’iy rioya qilindi: ishtirokchilar tadqiqotda ixtiyoriy ravishda qatnashdilar va barcha ma’lumotlar anonim tarzda qayta ishlanib, maxfiylik ta’minlandi.

Natijalar.

Tadqiqot natijalari bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida pedagogik refleksiyaning dastlabki darajasi asosan past ekanligini ko‘rsatdi. Boshlang‘ich bosqichda ishtirokchilarning 70% reflektiv yozuvlari tavsifiy (descriptive) darajada bo‘lib, ular dars jarayonini umumiy bayon qilish bilan cheklangan (“dars yaxshi o‘tdi”, “o‘quvchilar faol bo‘ldi” kabi). 20% ishtirokchilar qisman tahliliy (analytical) refleksiya elementlarini namoyon etgan bo‘lsa, atigi 10% talaba tanqidiy (critical) refleksiya darajasiga yaqin fikr yurita olgan.

Maxsus tashkil etilgan reflektiv faoliyatlar (mikroo‘qitish, videokuzatuv, reflektiv kundalik va mentorlik teskari aloqasi) joriy etilgandan so‘ng sezilarli ijobiy o‘zgarish kuzatildi. Yakuniy bosqichda tavsifiy refleksiya darajasidagi ishtirokchilar ulushi 70% dan 25% ga kamaydi. Shu bilan birga, tahliliy refleksiya darajasi 20% dan 45% ga, tanqidiy refleksiya darajasi esa 10% dan 30% ga oshdi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ayniqsa videokuzatuv va mentorlik asosidagi teskari aloqa refleksiya chuqurlashishida muhim rol o‘ynadi. Talabalar o‘z darslarini kuzatish orqali o‘z pedagogik qarorlarini yanada aniqroq tahlil qila boshladilar[8]. Xatolarni aniqlash va ularni tuzatish bo‘yicha aniq strategiyalar ishlab chiqishga o‘tdilar. Shuningdek, reflektiv kundaliklardan foydalanish talabalarda muntazam tahlil qilish odatini shakllantirdi. Ular dars jarayonini faqat tasvirlash bilan cheklanmay, balki sabab-oqibat bog‘liqligini ko‘rsatish, muqobil yechimlarni taklif qilish va kelgusi darslar uchun aniq reja tuzish ko‘nikmalarini rivojlantirdilar. Umuman olganda, natijalar refleksiyani tizimli va metodik yondashuv asosida rivojlantirish bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy fikrlash darajasini sezilarli darajada oshirishini tasdiqlaydi[3],[4].

Muhokama.

Muammolarning yechimi sifatida refleksiyani shakllantirishning ko‘p bosqichli modeli taklif etiladi. Model birinchi bosqichda refleksiyaning me’yoriy asosini yaratishni ko‘zda tutadi, ya’ni bo‘lajak o‘qituvchi refleksiya mezonlarini tushunishi va ularni dars dizayni hamda o‘qitish qarorlariga bog‘lay olishi kerak. Bunda dars maqsadlarini kommunikativ natijalar bilan ifodalash, o‘quvchi ishtirokini kuzatish indikatorlarini belgilash, til ko‘nikmalari bo‘yicha xatolarni diagnostika qilish kabi elementlar refleksiya obyekti sifatida aniqlashtiriladi[11]. Ikkinchi bosqichda mikroo‘qitish va videokuzatuv asosida reflektiv tahlil yo‘lga qo‘yiladi. Video materiallar talabaning “o‘qituvchi sifatida o‘zini ko‘rishi”ga imkon berib, sub’ektiv taassurotni obyektiv dalil bilan boyitadi; bu jarayonda mentorning savol-javobga asoslangan teskari aloqasi refleksiyani chuqurlashtiradi [3]. Uchinchi bosqichda reflektiv kundalik va portfel mexanizmlari orqali refleksiya uzluksiz va izchil xarakter kasb etadi, bunda talaba har bir dars bo‘yicha muammo, sabab, dalil, alternativ yechim va kelgusi sinov rejasi kabi bog‘langan komponentlar asosida yozadi. To‘rtinchi bosqichda refleksiya kichik amaliy tadqiqot bilan integratsiyalanadi, ya’ni talaba sinfdagi muayyan muammoni aniqlab, oddiy ma’lumot to‘plash usullari (tezkor test, kuzatuv jadvali, o‘quvchi mahsuli tahlili) orqali yechimni sinab ko‘radi va natijani tahlil qiladi; bu refleksiyani nazariy mulohazadan dalillangan kasbiy xulosaga aylantiradi [4].

Mazkur modelni amaliyotga tatbiq etishda metodik vositalarni aniq belgilash zarur. Birinchidan, reflektiv yozuv uchun savollar tizimi umumiy bo‘lmasligi, ingliz tili darsining xususiyatlarini hisobga olishi kerak: kirish bosqichida motivatsiya va til materialini faollashtirish, asosiy bosqichda interaksiya va nutq amaliyoti ulushi, xatolar bilan ishlash strategiyasi, yakunda baholash mezonlarining shaffofligi va o‘quvchi o‘zini baholashi kabi jihatlar doimo tahlil markazida bo‘lishi lozim[12]. Ikkinchidan, mentorlik teskari aloqasi baholovchi hukm emas, rivojlantiruvchi muloqot tamoyiliga asoslanishi kerak; bunda mentor darsning kuchli jihatlarini dalil bilan ko‘rsatadi, muammoli nuqtani aniqlaydi, alternativ strategiyalarni taklif qiladi va talabaning o‘zi qaror qabul qilishiga sharoit yaratadi. Refleksiya aynan shunday muloqotda “ichki dialog”ga aylanib, talabaning kasbiy o‘sishiga xizmat qiladi [5]. Uchinchidan, refleksiyani baholash uchun rubrikalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq: rubrikada tavsiflovchi, tahliliy va tanqidiy darajalar farqlanib, har bir daraja uchun dalillash, sabab-oqibatni ko‘rsatish, alternativ yechim ishlab chiqish va keyingi darsga transfer qilish kabi indikatorlar beriladi. Bunday rubrika refleksiyani sub’ektiv “yoqdi-yoqmadi”dan chiqarib, standartlashtirilgan va o‘rgatiladigan ko‘nikmaga aylantiradi[5].

Taklif etilayotgan yechimlarning muhim sharti sifatida oliy ta'lim muassasasida reflektiv madaniyatni shakllantirish ko'riladi. Reflektiv madaniyat deganda o'qituvchi va talaba o'rtasida ishonchli akademik muhit, xatoni jazolash emas, o'rganish manbai sifatida qabul qilish, teskari aloqaning muntazamligi hamda pedagogik tajribani baham ko'rish amaliyoti tushuniladi[11]. Bunday muhitda bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi o'z tajribasini yashirmaydi, balki uni tahlil qiladi, qiyinchilikni aniq ifodalaydi va metodik yechimni sinovdan o'tkazadi. Shuningdek, refleksiyani raqamli platformalarda qo'llab-quvvatlash ham samarali: elektron portfel, video kutubxona, onlayn mentorlik va tengdoshlar tahlili refleksiyani faqat auditoriya bilan cheklab qo'ymaydi, balki uzluksiz kasbiy rivojlanishning tabiiy qismiga aylantiradi[3].

Xulosa.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik refleksiyani shakllantirish muammosi refleksiyaning obyekti va mezonlari noaniqligi, amaliyotda teskari aloqaning tizimsizligi, metodik vositalarning shablonlashuvi hamda baholashning jarayonga emas, natijaga yo'naltirilgani bilan izohlanadi[10]. Maqolada refleksiyani kompetensiyaviy yondashuv asosida ko'p bosqichli model orqali rivojlantirish, mikroo'qitish va videokuzatuvni mentorlik teskari aloqasi bilan birlashtirish, reflektiv kundalik va portfelni dalillash tamoyiliga tayash, shuningdek, rubrika asosida baholash orqali refleksiyani tizimli kompetensiyaga aylantirish yo'llari asoslandi. Natijada bo'lajak o'qituvchi darsni faqat o'tkazmaydi, balki uni pedagogik dalillar asosida tahlil qiladi, muammoni aniq belgilaydi va keyingi amaliy qarorlarini ongli ravishda takomillashtiradi[3], [5].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1]. Джонсон К. Э. The Second Language Teacher Education: A Sociocultural Perspective. New York: Routledge, 2009. 248 p.

[2]. Schön D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books, 1983. 384 p.

[3]. Федотова О. Д. Рефлексия в педагогической деятельности: теория и практика. Москва: Юрайт, 2019. 214 с.

[4]. Passmore J. (ed.). The Coaches' Handbook. Chichester: John Wiley and Sons, 2011. 400 p.

[5]. Абдураззоқова Н. А. Педагогик компетентлик ва рефлексия: ўқитувчи тайёрлаш назарияси ва амалиёти. Тошкент: Фан, 2020. 176 б.

[6]. Юлдашев Ж. Г. Таълим сифатини таъминлашда мониторинг ва баҳолаш технологиялари. Тошкент: Ўқитувчи, 2018. 200 б.

[7] Dewey, J. (1933). How we think. New York: D.C. Heath.

[8] Farrell, T. S. C. (2015). Promoting teacher reflection in second language education. Routledge.

[9] Richards, J. C., & Lockhart, C. (1994). Reflective teaching in second language classrooms. Cambridge University Press.

[10] Larrivee, B. (2008). Development of a tool to assess reflective practice. Reflective Practice, 9(3), 341–360.

[11] Hatton, N., & Smith, D. (1995). Reflection in teacher education. Teaching and Teacher Education, 11(1), 33–49.

[12] Creswell, J. W. (2014). Research design. Sage.